

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ЎЗБЕКИСТОН ГЕОГРАФИЯ ЖАМИЯТИ

**НИЗОМИЙ НОМИДАГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ**

**“ГЕОГРАФИЯ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ”
КАФЕДРАСИ**

**“ГЕОГРАФИЯ ВА ГЕОГРАФИЯ
ТАЪЛИМИДАГИ МУАММОЛАРИ”**

Республика миқёсидаги илмий - амалий конференцияси

МАТЕРИАЛЛАРИ

Тошкент, 30 май 2018 йил

Тошкент – 2018

Баратов П. <i>Географик муҳитни шовқиндан сақлаш муаммолари</i>	63
Бадалов Ў.Б. <i>Ўрта Зарафшон ҳавзасида туристик ва рекреация ресурсларини географик ўрганиш масалалари</i>	65
Боймирзаев К.М., Мирзахмедов И.К. <i>Воҳа ландшафтларининг геоэкологик муаммолари ва уларни муҳофаза қилиш масалалари</i>	69
Боймуродов Х.Т., Саидкулов Ж.Р., Эгамкулов А.Н., Тагматов Ж.Ж. <i>Қуйи Амударё балиқчилик хўжалигида иккинчиллик моллюскаларининг тарқалиши ва экологик гуруҳлари</i>	72
Багирова Ф.Т., Игамкулова Ш.А., Горшунова А.М., Рысбеков А.Д. <i>Рациональное природопользование – гарантия устойчивого развития</i>	74
Дўстбеков С., Хуррамова З., Эшқувватов Б. <i>Нурота қўриқхонаси ва унинг геоэкологик муаммолари</i>	77
Juraxujayev D.D., Begimqulov J.B., Abbdug'aniyeva V.A. <i>Agrogeosistemalardan foydalanishda vujudga kelgan ekologik muommlar va ularni oldini olish</i>	80
Jumayeva M.B. <i>Navoiy viloyti turistik salohiyati va "Qalqon ota" ziyoratgohi</i>	82
Джаксымуратов К.М., Есенбаев Г.Р., Жанабаев И. <i>Тема: сохранение пресных подземных вод в Южном Приаралье</i>	84
Зикиров И., Саттаров С., Кенжаев А., Жуманов Ж. <i>Сурдарё вилояти ҳудудида учрайдиган доривор ўсимликлар</i>	85
Ismoilov S. A. <i>Neft mahsulotlari bilan suv zahiralarning ifloslanishi</i>	97
Ишнмов С.Х. <i>Сурхондарё вилоятида фойдали қазилмалардан фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилиш</i>	88
Ишнмов С.А. <i>Сурхондарё воҳасида тоғ экотуризмини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари</i>	91
Muqimova H.L., Nazarov M.G., Abdullayev S.I. <i>Geoekologiya – integral fan</i>	93
Nazarov H., Jabborov A. <i>Farg'ona viloyati rekratsiyon landshaftlarining geologik tarixi</i>	96
Nazarov M.G., Muqimova H.E., Boymurodov S.M. <i>Qashqadaryo viloyat tekislik qismi landshaftlarining geoekologik jihatlari</i>	98
Negmatov S.Q. <i>Inson faoliyati ta'sirida O'zbekiston va O'rta Osiyoda yo'qolgan va yo'qolish arafasidagi hayvon turlari</i>	101
Назаров Х. Ё., Бердиев Ф.Х., Қодирова К.М. <i>Озон тўйини — ҳалокат йўлаги</i>	102
Назаров Х.Ё., Қодирова К. М. <i>Загрязнение воздуха охрана окружающей атмосферы</i>	104
Нормуратов О.У., Алматов Б.Т., Имомова Л.И. <i>Сурхондарё вилоятининг шимолий ҳудудлари экологик ҳолати</i>	106
Нормуратов О.У., Турсунов У.Ф., Авлиякулов А.И., Хамраев А.А. <i>Ўзбекистонда экологик муаммоларни бартараф этишнинг айрим жиҳатлари</i>	109
Otajonov Sh.E. Berdiyev G'X., Otajonova S.R. <i>Rekreatsioon salohiyatning tabiyy shart-sharoitlar bilan bog'liqligi</i>	111
Ochilova M. X., Karakulov N. M., Absalyamova M. S. <i>Kitob davlat geologik qo'riqxonasining O'zbekiston "Qizil kitobi" ga kiritilgan o'simliklar tahlili</i>	113

muhitning ifloslanishi kuchaydi. Keyingi yillarda sintetik materiallar, ko'mir, neft, gazni qayta ishlab mahsulot chiqarish, kimyoviy o'g'itlar ishlab chiqarish, avtomobil, suv va havo transportining juda rivojlanib ketishi, buning ustiga bir qancha mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilishning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi atrof muhitni ifloslanishiga olib keldi. Ishlab chiqarishdan chiqarib tashlanadigan chiqindi, qishloq xo'jaligida o'g'it, gerbitsid va boshqalar atrof-muhitni zararladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda tabiiy boyliklarning ancha kamayib qolganligi va atrof muhitning ifloslanayotganligi bir qancha mamlakat hukumatlarini tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini ko'rishga majbur etdi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda o'rmon kesish tartibga solindi, daryolarda baliqni ko'paytirish boshlandi, ov hayvonlari ko'paytirilmoqda, ovchilikda tartib o'rnatildi va muhofaza qilinadigan hududlar ko'paytirilmoqda.

KITOB DAVLAT GEOLOGIK QO'RIQXONASINING O'ZBEKISTON "QIZIL KITOB"IGA KIRITILGAN O'SIMLIKLAR TAHLILI

Ochilova M.X., Karakulov N.M., Absalyamova M. S.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Magistrant (QarDU) Qarshi transport kasb -hunar kolleji o'qituvchi

Bizga ma'lumki hozirgi kunda yer yuzidagi aholisi soni 7 mlrd. kishidan oshdi. Aholi ko'payganligi sababli, ulaming oziq-ovqat va boshqa ehtiyojlariini qondirish hozirgi zamon global muommolaridan biri hisoblanadi. Insonlar o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'simliklardan noto'g'ri foydalanishi natijasida ulning turlari soni yildan-yilga kamayib bormoqda. O'simlik turlarini saqlab qolish va ularni kelajak avlodga saqlash bo'yicha butun dunyoda, shu jumladan Respublikamiz hududida ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. O'zbekistonning tog'li hududlari azal-azaldan noyob tabiati, eng qadimiy insonlarga makon bo'lgan maskanlari bilan ko'pchilik tadqiqotchilarni e'tiborini jalb etib kelgan.

Tabiiy boyligimiz hisoblangan o'simliklar va hayvonat olamiga nisbatan o'ta ma'sulyatsizlik bilan yondashuv oqibatida ko'plab noyob turlarning areali qisqarib ketdi. Bu holatning oldini olish maqsadida Respublikamiz hududida 2016 yil ma'lumotiga ko'ra 8-ta davlat qo'riqxonasi, 2-ta Milliy bo'g', 12-ta buyurtmaxonalar, 1-ta biosfera rezervati hamda 3-ta parvarishxonalar tashkil etilgan. Mazkur maskanlarda kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan o'simlik va hayvonlarning ko'plab turlari davlat muhofazasiga olingan. Ularning ayrimlari "Qizil Kitob"ga kiritilgan.

1979-yilda O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitob"i nashr etildi. Uning 1984-yildagi ilk nashriga kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan o'simliklarning 163 turi, 2009-yildagi qayta nashrida esa o'simlik va zamburug'larning 324 turi kiritilgan bo'lib, shulardan 53 turi Qashqadaryo viloyati o'simliklar qoplamida uchraydi. Shundan 19 ta turi Kitob davlat geologik qo'riqxonasi hududida tarqalgan.

O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitob" birinchi jildiga noyob o'simlik turlaridan Korovin shirachi, Turkiston yovvoyi noki, yovvoyi anor, Zarafshon piyoz, tog'piyoz, O'zbekiston lolasi, yovvoyi anjir, Omonqora va Buxoro astragali, yovvoyi uzum, chinnigul, mingdevona, sumbul, chilonjiyda, Chimyon lolasi, guli salim kabi o'simliklar kiritilgan.

«Qizil kitob»ning ikkinchi jildidan kattaquloq ko'rshapalak, ko'k sug'ur, katta qo'shoyoq, qo'ng'ir ayiq, Turkiston qunduzi, sirtlon, qoplon, gepard, xongul, jayron, Ustyurt qo'yi, Buxoro qo'yi, arxar, oq va qora laylak, qizil g'oz, lochin, burgut, oq turna, echkemar, kapcha ilon kabilar o'rin olgan.

Kitob Davlat geologik qo'riqxonasi 1979 yil 22 martda O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan zaminimizning geologik tarixi tabiiy-ilmiy yodgorliklarini nomoyon etadigan paleontologiya – stratigrafiya majmualarini qo'riqlash va rejali o'rganish, shuningdek tabiatga kamayib borayotgan va yo'qolish arafasida bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, aholining ekologik bilimini oshirish maqsadida tashkil qilingan. Qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar Davlat qo'mitasi qaramog'ida turadi.

Qo'riqxonasi hududi geografik jihatdan Zarafshon tog'ining janubiy-g'arbiy yonbag'rida, Hojiqo'rg'on soyining chap qirg'og'ida, ma'muriy jihatdan esa Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida joylashgan. Umumiy maydoni 5378 ga. Relyefi tog'li, yuqori qismi qoyalardan, pastki tomoni esa tepaliklardan iborat. Dengiz sathidan balandligi 1300-2650 m-ga etadi. Iqlimi quriq subtropikka xos bo'lib, ancha kontinental. Yanvar oyining o'rtacha harorati -5°C , iyul oyining harorati $+18^{\circ}\text{C}$ atrofida kuzatiladi. Yillik yog'in miqdori 600 mm xisoblanadi. Qo'riqxonasi hududini Obi-Safit, Xo'jaqo'rg'on, Zinjilbog', Novabog' va boshqa soylar chuqur kesib o'tib, bu yerda go'zal tabiatli har xil tog' daralarini hosil qilgan.

Mazkur qo'riqxonasi O'rto Osiyodagi yagona geologik qo'riqxonasi xisoblanadi. Unda 300-400 mln. yil ilgari yashagan hayvon izlari, tog' jinslari, o'simliklardan ulug' tog' lolasi, sharq chinori, Zarafshon archasi, qizilcha, sirach, hasharotlardan beshiktovatar, Turkiston ko'zoynakli iloni, echkemar, toshbaqa, qushlardan burgut, kaklik va boshqalar muhofazaga olingan.

Qo'riqxonaning tirik tabiat olami juda boy va xilma-xil. Qo'riqxonasi hududida jami o'simliklarning 800 turga yaqini ma'lum bo'lib, shundan 5ta ochik urug'lilar, 5 ta paparotniklar va 790 ta yuksak o'simliklar tashkil etadi.

Qo'riqxonada jami bo'lib oldingi yillarda O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitob"ga kiritilgan 22 ta o'simlik turi qayd qilingan edi. 2006 yilgi "Qizil Kitob" ro'yxatidan 3 ta tur: shafran korolkova, anzur piyozi, suvorov piyozi chiqarildi va ularning umumiy soni 19 taga qoldi.

**Kitob Davlat geologik qo'riqxonasida O'zbekiston Respublikasi
"Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simliklar sistematik tahlili**

I.	Ayiqtovondoshlar oilasi	Ranunculaceae
1.	Cho'ziq pufanak	Anemone protracta
2.	Taxta oksitropisi	Oxytropis techtensis
II.	Gulsafsardoshlar (safsarguldoshlar)	Iridaceae
3.	Yovvoyi gladiolus	Gladiolus segetum
4.	Antiqqa yumona	Yuno magnifica
III.	Ziradoshlar (sovabonguldoshlar) oilasi	Aplacae (Umbelliferae)
5.	Sumbul kovrak	Ferula sumbul
IV.	Loladoshlar oilasi	Liliaceae
6.	Omonqo'ton lolasi	Tulipa fosteriana
7.	Korolkov lolasi	Tulipa korolkovie
8.	Turkiston lolasi	Tulipa Turkestanica

9.	Ulug' lola	Tulipa ingens
V.	Savrinjondoshlar oilasi	Calchicaceae
10.	Kesselring savrinjoni	Colchicum kesselringli
VI.	Sallaguldoshlar	Paloniceae
11.	Yovvoyi sallagul –Palomia hybrid	Palomia hybrid
VII.	Chinniguldoshlar oilasi	Carvophvflaceae
12.	Kachimsimon yetmak(bex)	Allochrusa gypsophiloides
13.	O'zbekiston chinniguli	Dianthus Uzbekistanicus
VIII.	Chinordoshlar oilasi	Platanaceae
14.	Sharq chinori	Platanus orientalis
IX.	Chuchmadoshlar oilasi	Amaryllidaceae
15.	Fisher Shternbergiyas	Fisher Shternbergiyas
X.	Shirachdoshlar oilasi	Asphodelaceae
16.	Nor shirach	Eremurus pubescens
XI.	Qoqio'rdoshlar (Murakkabguldoshlar)	Aseraceae(Compositae)
17.	Butkov karragi	Cousinia butkovi
18.	Jizzax karragi	karragi-Cousinia dshisakensis
19.	Egrikkan karrak	Cousinia campyloraphis

Shu 19 ta turdan: 7 turi yo'qolib borayotgan turlar toifasiga yana 7 turi kamyob turlar toifasiga va 5 ta turi kamayib borayotgan turlar toifasiga kiritilgan, bundan tashqari 2 ta tur: yovvoyi sallagul va nor shirach kamyob turlar toifasidan kamayib borayotgan turlar (3) toifasiga o'tkazilgan.

ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Отажонов Ш.Э., Бердиев Ғ.Х., Отажонова С.Р.

Кўкон давлат педагогика институти

Бугунги кунга келиб экотуризм жаҳон туризм индустриясида муҳим ўрин эгалламоқда. Бугун жаҳон туристик ташкилоти экспертларининг баҳоратиға караганда, XXI унинг ўсиш суръати юкорилигича колиб, даромад келтириши бўйича дунёнинг кўшгина давлатлари айниқса ривожланаётган давлатларнинг иктисодий ўсишиға катта ҳисса кўшади. БМТ маълумотларига караганда, ҳар йили экотуризмдан нисбатан кичик давлатлар ҳам, жумладан: Кения - 1,4, Эквадор - 1,18, Коста-Рика - 1,14, Непал - 1,55, миллион АҚШ доллари миқдорида даромад олади. Бу эса мазкур мамлакатлар ялли ички махсулотининг 70 – 80 фойзини ташкил этади.²

Ривожланиб бораётган мамлакатларнинг туризм индустрияси, асосан, табиий ёки экологик туризм ҳисобига амалға опмоқда. Маълумотларға караганда, экотуризм сайёҳлик бозорининг 10-20% ини камраб олган, ўсиш суръати эса умумий туризм ўсиш суръатидан 2-3 маротаба ошиб кетган. Ҳозирги кунда сайёҳлик индустриясида экотуризм тармоғига кирувчи табиий ва саргузашт туризм йўналиши жадал суръатлар билан ривожланиб бораётти. Масалан: Канада давлатида “ёввойи” табиатға саёҳат туризмининг умумий ҳажми ички туризмдан тушадиган даромадни 25 фойзини ташкил этади. Канада ҳукумати фақатгина экотуризмдан тушадиган солиқ ҳисобидан ҳар

² “Училичи сектор” ва туризм бозори. // “Жамият” газетаси, 2012 йил, 22-март, 14-бет.